QIPCHOQ LAHJASINING AYRIM LEKSIK XUSUSIYATLARI

Nurmatova Surayyo To‘lqinjon qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada har doim dolzarb mavzu sifatitida ifoda etib kelinayotgan tilshunoslikning asosiy birliklaridan biri sheva va lahjalarning leksikasi qipchoq lahjasi misolida tahlil qilingan, namunalar orqali yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *qipchoq lahjasi, adabiy til, umumturkiy so’zlar, omonimlik.*

Аннотация*. В статье анализируется лексика диалектов и говоров — тема, сохраняющая свою актуальность в лингвистике, — на примере кыпчакского диалекта, а сам анализ иллюстрируется конкретными примерами.*

Ключевые слова*: кыпчакский диалект, литературный язык, обще-тюркские слова, омонимия.*

Annotation. *This article analyzes the vocabulary of dialects and sub-dialects - a topic of enduring relevance in linguistics—using the Kipchak dialect as a case study and illustrating the analysis with specific examples.*

Keywords: *Kipchak dialect, literary language, Common Turkic words, homonymy.*

Qipchoq lahjasi — o‘zbek tilining asosiy uchta yirik lahjasidan biri bo’lib, bu lahja O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida, jumladan, Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida, Qozog‘istonning So‘zoq tumanida, Turkistonning Suvnoq, Cho‘rnoq qishloqlarida yashaydilar. O'zbek tilining qipchoq lahjasi o'ziga xos boy leksik qatlamga, qadimiy turkiy so'zlarga hamda fonetik xususiyatlarga ega. Bu lahja vakillari nutqida umumturkiy va qipchoqiy qatlamdagi leksemalar saqlanib qolgani bilan xarakterlidir.

Qipchoq qabilalari ham uzoq o‘tmishda Oltoy o‘lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan. XIII asr o‘rtalarida ular kimak/imak (yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar. VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo‘yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo‘ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning

avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O‘rta Osiyo, Volga bo‘yi territoriyalarida istiqomat qiladilar[69].

Qipchoq lahjasi o’zining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan boshqa lahja va shevalardan farq qiladi. Xususan, qipchoq lahjasi vakillari istiqomat qiladigan Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari shevasida o’xshashliklar juda ko’p bo’lib, bunga asosiy sabab hududiy yaqinlik hamda doimiy qarindoshlik aloqalari va turmush tarzidagi o’xshashlik hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjasi o‘z fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra o’zbek adabiy til normalaridan ham bir necha jihatlari bilan farq qiladi. Har bir tilda, shuningdek, shevalarda ham hayotiy zarur tushunchalar so‘zlar vositasi bilan ifodalanadi. Tilimiz leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so‘zlar o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etadi[70]. Leksik qatlam xalq tarixini yoritishda va tarixiy grammatikani hamda tarixiy leksografiyani yaratish uchun ham boy materiallar beradi.

O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishi sifatida unda bo‘lgan barcha qatlam so‘zlarini o‘zida birlashtiradi, binobarin, o‘zbek shevalari quyidagi leksik qatlamlardan iborat: 1. Umumturkiy so‘zlar. 2. O‘zlashgan so‘zlar. 3. O‘zbek tili sharoitida yaratilgan so‘zlar. 4. Shevalarning maxsus so‘zlari.

Umumturkiy so‘zlar barcha turkiy tillarda va shevalarda qo‘llanadi hamda ular o‘zbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin. Qipchoq lahjasida umumturkiy so’zlarning ko’pi kuchli va kuchsiz fonetik o‘zgarishga uchraydi. Bunga yer/jer, ish/is, bash/bas kabi va boshqa turli sohalarga oid so‘zlar taalluqlidir. Shevalar lug‘at tarkibining salmoqli qismini umumturkiy so‘zlar tashkil etadi. Bu jihatdan qipchoq lahjasi "j"lovchi ekanligi bilan ham xarakterlidir. So'z boshida y undosh j undoshiga o'tadi: *yo'l- jo'l, yer- jer, yo’q – jo’q* va shu kabi so'zlar; harakat nomi -v/uv - v/uv/üv affiksi bilan ifoda qilinadi: boruv - baruv, keluv - kelüv, qoluv - qaluv

O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishi sifatida unda bo‘lgan barcha qatlam so‘zlarini o‘zida birlashtiradi, binobarin, qipchoq lahjasida o'zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so‘zlar mavjud. Masalan, *poyabzal - shaltak, xafa -jilxush, varaja qilmoq – sovqotmoq* kabi Shuningdek, o’zbek adabiy tilidagi ba'zi so'zlar shevada omonimlikni yuzaga keltiradi. Misol uchun, *do'ppi* adabiy tilda milliy bosh kiyim ma‘nosini anglatsa, Qashqadaryo va Surxandaryo shevasida do'ppi leksemasi koptok ma‘nosida qo‘llaniladi*: Do’ppini olib ke – Koptogingni olib kel.*

[69] Ashirboyev S. O’zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016.B.69
[70] Turdibekov M. O’zbek dialektologiyasi fanidan o’quv-uslubiy qo’llanma. – Toshkent, 2021. -B.67

Ba’zi bir so’zlar shevaning o’zida ham omonimlikni yuzaga chiqaradi. Jumladan, adabiy tilda mavjud bo’lgan *mayda* sifati bir necha ma’nolarda qo’llanilib, omonimlikni yuzaga chiqaradi:

U sizdan ancha mayda –kichkina (yosh jihatdan)

Qo’shnining kelini mayda ekan - ozg’in (xususiyat jihatdan)

Shevalarda mavjud bo’lgan ayrim so’zlar jins jihatdan ham qarama-qarshilikni yuzaga chiqaradi. Xususan, *opoqi* leksemasi qipchoq dialektida otaning yoki onaning onasi ma’nosida qo’llanilsa, boshqa shevalarda esa ota yoki onaning otasi ma’nosida qo’llaniladi. Bu holat o’zbek tili tarixi bilan uzviy bog’liq bo’lib, bunga quyidagicha izoh beriladi: “Opoqi”ning “bobo” ma’nosi esa, “apa//aba” arxetipi “ota”, “bobo” ma’nosida qo‘llanadigan turkiy lahjalar orqali tilimizga ko‘chgan. “Yoshi katta ayol” ma’nosidagi “opoqi” esa mazkur so‘zni muannas shaklida qo‘llovchi shevalarda paydo bo‘lgan. “Apa+q” shaklidagi “-q” qo‘shimchasi, kichraytirish, erkalash ma’nosini tashiydi. “Devonu lug‘otit-turk”da shu usulda yasalgan boshqa bir so‘z – “ataqi”ga shunday izoh beriladi: “ataqï – otaginam, otajonim ma’nosida mehribonlikni bildiruvchi so‘z” “Bobo” ma’nosidagi “opoqi” ham aynan shu shaklda yasalgandir[71].

Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta hududga tarqalgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga dalildir. O‘zbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folklorshunoslar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjasi o‘z fonetik va leksik grammatik xususiyatlariga ko‘ra, o‘zbek adabiy tili normalaridan ham ko‘p jihatlari bilan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O’zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016. – 148 b.
2. Turdibekov M. O’zbek dialektologiyasi fanidan o’quv-uslubiy qo’llanma. – Toshkent, 2021. -B.67
3. Saidov Y. O’zbek dialektologiyasi. – Buxoro: Durdona, 2022. – 96 b.
4. To’ychiboyev B. O’zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2004. – 113 b.
5. Ишаев А. Узбек диалектикал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. 140 б.

[71] Qarang. Abduvohid Hayit “Jadid” gazetasi 2024-yil 17-may 21-son